

MUSTAHKAM OILA.

ISMOILOVA SEVARA RAJABBAY QIZI.

MA'MUN UNIVERSITETI NTM FILOLOGIYA FAKULTETI

ROMAN-GERMAN FILOLOGIYASI KAFEDRASI

211-INGILIZ TILI GURUHI TALABASI.

Annotatsiya: *Mustahkam oila qurish uchun qilinadigan harakatlar va farzandlarni otasiz yoki onasiz qiynalishini oldini olishni rivojlantirish . Oilada er va xotin munosabatlarini ijobiy shakllantirish va ajrimlarni kamaytirish.*

Kalit so'zlari: *oila, tinchlik, er va xotin, oila madaniyati, munosabatlar, glaballashuv jarayonlari va baxtli turmushni yaratish.*

Mustahkam oila tinchlik garovidir. Oila mustahkam bo'lsa, yurtimiz ham ko'nglimiz ham tinch bo'ladi. Chunki oiladagi kelishmovchilik nafaqat ruhiyatga qolaversa jamiyatga ham ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Oila bu baxt. Men oilani mevali daraxtga o'xshataman. Daraxt mevalarini esa oiladagi farzandlarga o'xshataman. Daraxtning mustahkamligi esa daraxtga quyilgan suvga bog'liq. Bu bilan nima demoqchiman? Agar oilani mustahkam qilmoqchi bo'lsak unga katta e'tibor qaratishimiz kerak.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yosh oilalar uchun va boshqa katta yoshdagilar uchun juda katta shart-sharoitlar yaratmoqda. Bu biz uchum sharaf chunki Prezidentimiz ko'pgina uy-joyga ehtiyoji bo'lgan oilalarga katta imkoniyatlar yaratib kelmoqdalar. Buning asosiy sababi oilalar tinchligi nafaqat oila balki yurt tinchligi uchun ham juda foydali. Chunki ko'pchilik oilalar uy-joy qilish uchun uzoq safarlarga ketadi va bazi bir sabablarga ko'ra ajrimlar yuzaga keladi. Shuningdek xotin-qizlarni ish bilan taminlash va o'z-o'zini band qilish shart-sharoitlari amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning farmoni va qaroriga muvofiq, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tashkil etildi. Yig'ilishda mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash, jinoyatchilikni oldini olish,

ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha vazifalar muhokama qilindi.

Bugungi kunda yosh oilalar nafaqat kattalar ham bu muammolar yuzasidan aziyat chekmoqda. Xozirgi kunda dolzarb muammo desak adashmaymiz. Chunki oiladagi bu kelishmovchiliklar farzanlarga va oila a'zolarimizga katta ta'sir ko'rsatadi va inson sog'ligi uchun salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, bizni birinchi qiladigan ishimiz oila qurishdan oldin yaxshilab o'ylab ko'rib va bu mas'uliyatli zimmaga tayyor ekanligimizni his qilishimiz kerak. Oilani muqaddas deb bilib uni qadrlab ko'z qorachig'imizdek asrash kerak. Avvalo oilada ishonch, izzat, hurmat, mehr, muhabbat, vafo, vijdon, shirin so'zlar hamisha bo'lishi kerak.

Er va hotin bir-birini tushinib, sevib ardoqlab va har qanday vaziyat bo'lmasin uning yonida turishi kerak. Bir-biri bilan yaqin do'stlar kabi munosabatda bo'lib, sirlashib har bir muammoni birga muhokama qilsa va maslahatlashib ish tutsa oila yanada mustahkam bo'ladi.

Oila mustahkam bo'lishi uchun pul, mansab va boshqa narsa buyumlar shart emas. Faqat e'tibor va bir-birini tushunish kifoya qolgan narsalar o'z-o'zidan kelaveradi. Birlashish insonni komolotga yetaklaydi. Tinchlik va totuvlik bardavom bo'ladi. Oilada hukm suradigan sog'lom manaviy muhit va sog'lom turmush tarzi yoshlar o'rtasida paydo bo'ladigan ichuvchilik, kashandalik, giyohvandlik, jinoyatchilik turli jinoiy guruhlar va diniy oqimlar tasiriga tushib qolishdan saqlaydi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov mustahkam oila haqida shunday degan edi: 2012- yilni mamlakatimizda "Mustahkam oila" yili deb nom bergani bejis emas, albatta. Buning negizida yurtimizda oila inistitutini, avvalo, yosh oilalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, oila tayanchi bo'lgan ayollarimizning og'irini yengil qilish, mahalla tizimining bu boradagi ro'lini kuchaytirish, muxtasar aytganda, oila farovonligini va shu asosda butun xalqimiz farovonligini yanada oshirish kabi maqsadlar mujassan ekanini, o'ylaymanki, hammamiz yaxshi tushunamiz.

Oila – insonlarning tabiiy biologik, nikoh, qon-qarindoshlik, iqtisodiy,

xuquqiy, manaviy munosabatlariga asoslangan turmush birligi o'zaro javobgarlik orqali bog'langan ijtimoiy guruhidir. Bugungi kunda oila a'zolari bir-birlari bilan umumiy turmush, iqtisodiy, mulkiy, manaviy, xuquqiy, psixologik munosabatlar o'zaro javobgarlik xis-tuyg'ulari bilan bog'lanib turadi. Oilada har bir oila a'zosining o'z ijtimoiy o'rni bo'lsa-da, uning asosini er-xotin tashkil etadi.

Oilaning mustahkamligi unda dunyoga kelgan farzandlarning salomatligiga ko'p jihatdan bog'liq bo'lib mamlakatimizda aynan mustaqillik yillarida bu borada talay ijobiy ishlar amalga oshirilgan, davlat dasturlari, xukumatning maxsus qarorlari qabul qilingan. Bu xuquqiy asoslar, avvalambor, onalar va bolalar sog'ligini muhofaza qilish, oilani mustahkamlash, oilada sog'lom turmush tarzini shakllantirish, oilani moddiy va manaviy qo'llab-quvvatlash, oilada er-xotin munosabatlarini to'g'ri shakllantirish, yashash sharoitlarini yaxshilash, farzandlarning o'qish va ijod qilishlari uchun sharoitlar yaratish, bir so'z bilan aytganda oilada sog'lom muhit yaratish oila salomatligining asosiy omillari xisoblanadi.

Bugungi kunda oiladagi kelishmovchiliklar sabablari arzimagan narsalar tufayli bo'lmoqda. Islom dinida oila muqaddas sanaladi. Afsuski keying paytlarda shu muqaddas rishtani asrab-avaylashga e'tiborsizlik kuzatilmoqda. Vaziyatga yaxshigina e'tibor bersak, oila degan qo'rg'onning buzilishiga, bir qarashda arzimasdek ko'ringan omillar sabab bo'ladi va oila mustahkamligiga raxna solidi. Bunga jiddiy qarashimiz lozim. Shu bois yomon oqibatlariga olib keluvchi omillarni sanab o'taman, toki oilalar mustahkam qo'rg'onga aylansin.

Masalan; ota-onadagi salbiy omillar;

Farzandning oilasiga o'rinsiz aralashish; kelinga o'z qizidek emas, xizmatchi deb qarash; yoshlar yo'l qo'ygan ayrim xatolarini kechirmaslik; quda tamondan moddiy manfaat tama qilish; kelin yoki kuyov oldida obro'sini saqlay bilmaslik; farzandlar zimmasidagi xaqlarini suistemol qilish va xokazo.

Erdagi ajrimga sabab bo'luvchi omillar;

Erlik masuliyatini xis etmaslik; ayolning tabiiy xulqini tushunib yetmaslik; ro'zg'or yumushida ayolini yakkalab qo'yish; o'z axloqida yengiltaklikka moil bo'lish; oila muammolariga sovuqqonlik bilan qarash; boylik va mansabga kerilib, xotinini mensimaslik; ichkilikbozlik va giyohvandlik va boshqa illatlarga berilish; aytolning shani, obro'sini saqlashdan yuz o'girish va hokazo.

Xotindagi ajrimga sabab bo'luvchi omillar;

Er talabini mensimaslik; gap tashish; erining shani obro'sini saqlay bilmaslik; erining mulki va ayollik iffatiga xiyonat qilish; eri va uning yaqinlariga xurmatsizlik qilish; dangasalik; loqaydligi sabab uy yumushlariga ulgura olmaslik; qanoatsizlik, sabrsizlik, yengiltaklik kabi salbiy axloqlarga berilish; farzand ko'rganida go'dakni yuvib- tarashga, sog'ligini saqlashga, injiqliklariga sabr-bardosh bera olmaslik va hokazo.

Shunday ekan bunday vaziyatlarga tayyor turib xar bir vaziyatni to'g'ri qabul qilishimiz kerak chunki har qanday mayda narsaga kelishmovchlik bo'ladigan bo'lsa oila mustahkam bo'lmaydi va kelajagimizga katta ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, oila bu ajib nemat uni vaqtida qadriga yetaylik asrab-avaylaylik, farzandlarimiz otasiz yoki onasiz aziyat chekmasin va yomon yo'llar girdobiga tushib qolmasin azizlarim. Men xali turmush qurmagan bo'lsamda kelajakda oiladagi vazifalarimni o'rganib xulosa chiqarishga xarakat qildim va xayot davom etar ekan bizlar xammamiz xar qanday vaziyatga tayyor turishimiz lozim. Shu bilan bir qatorda oilamizni mustahkam qilish uchun ko'proq xarakat qilishimiz kerak. Oilamiz tinch bo'lsa ishlarimiz xam a'lo darajada bo'ladi Inshollox.

Adabiyotlar

1. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev farmoni. Uzreport.new
2. Karimov I.A. 2011-yil yangi yil tabrigi
3. «Amir Temur hikmatlari». <https://kh-davron.uz>
4. Karimov I.A. Yuksak manaviyat-yengilmas kuch.